



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 4 (6)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**4**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

**MUNDARIJA**

|                                                                                                                                                              |            |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>Юлдашев Ш.Г.</b> Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....                                | <b>8</b>   |
| <b>Mamatov B.S.</b> Foreign investment is an important factor of economic growth.....                                                                        | <b>15</b>  |
| <b>Raximova K.N.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....                                         | <b>22</b>  |
| <b>Karimov Sh.X.</b> Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....                                                        | <b>26</b>  |
| <b>Raximov D.Sh.</b> To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....                                | <b>30</b>  |
| <b>Rashidova K.</b> Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....                                                    | <b>32</b>  |
| <b>Хакимов Д.Р.</b> Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....          | <b>37</b>  |
| <b>Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N.</b> O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari..... | <b>42</b>  |
| <b>Valikulov Sh.Z.</b> O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....                       | <b>48</b>  |
| <b>Ganieva L.S.</b> Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....                                                                    | <b>52</b>  |
| <b>Axrorova N.U.</b> Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....                                                             | <b>56</b>  |
| <b>Kamilova A.N.</b> Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....              | <b>61</b>  |
| <b>Umurzakova Z.S.</b> Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....                             | <b>66</b>  |
| <b>Abdiyeva D.K.</b> Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....                                                      | <b>69</b>  |
| <b>Xalimova N.J.</b> Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....                                                                       | <b>74</b>  |
| <b>Maxramova N.Y.</b> Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....                                   | <b>78</b>  |
| <b>Zaxirova G., Shavkatova N.O’.</b> O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....                                                                   | <b>82</b>  |
| <b>Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H.</b> Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....                                             | <b>86</b>  |
| <b>Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A.</b> Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....                                           | <b>89</b>  |
| <b>Xasanov I.M.</b> O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarining transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....                          | <b>94</b>  |
| <b>Abdullayev M.G’.</b> Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....                                | <b>101</b> |
| <b>Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К.</b> Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....                                                      | <b>105</b> |
| <b>Абдуғаниев Ё.Ж.</b> Яшил иктисодиёт - баркарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....                                                   | <b>112</b> |
| <b>Xusanboyeva T.M.</b> Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....                                         | <b>116</b> |
| <b>Xashimova S.N.</b> O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....                                                                     | <b>120</b> |
| <b>Mitillayev I.T.</b> Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....        | <b>124</b> |
| <b>Бобоқулова М.Ғ.</b> Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....                                                         | <b>127</b> |
| <b>Bekberganova M.R.</b> “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....                                                      | <b>134</b> |
| <b>Рахимова М.Ш.</b> Модернизация системы социальной защиты.....                                                                                             | <b>138</b> |
| <b>Oqboyev A.R.</b> Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....                                          | <b>142</b> |
| <b>Djumanova R.F.</b> Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....                                                                     | <b>147</b> |
| <b>Mamatov B.S., Umurzakova M.N.</b> Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....                            | <b>154</b> |
| <b>Ешимбетов У.Х.</b> Қишлоқ хўжалигини худудий ташкил этиш ва ихтисослаштиришнинг илмий асослари.....                                                       | <b>158</b> |
| <b>Xodjaeva F.K.</b> Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....                                           | <b>167</b> |
| <b>Yusupova M.</b> Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....          | <b>171</b> |
| <b>Abduxalilov B.Z.</b> O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....                       | <b>175</b> |
| <b>Abdisamatov A.A.</b> Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....                                                                    | <b>178</b> |

## **“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil**

|                                                                                                                                                                                  |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Abdusalomov I.J.</b> Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....                                             | 182 |
| <b>Amirov L.F., Sokhibjonova S.S.</b> Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....                                              | 185 |
| <b>Boltaxo'jayeva I.O'.</b> Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....                                                              | 191 |
| <b>Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G.</b> Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....     | 195 |
| <b>Isoqova M.A.</b> O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....                          | 199 |
| <b>Mamadaliyev B., Teshaboyev J.</b> Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....                                | 202 |
| <b>Poziljonov M., Teshaboyev X.</b> Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....                   | 206 |
| <b>Rustamova F.A.</b> Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....        | 209 |
| <b>Tursunboyev Q.O.</b> Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....                                     | 213 |
| <b>Umarov T.S.</b> Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....                                              | 216 |
| <b>Xo'jaliyev A.O., Avilov N.</b> Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....                                                 | 220 |
| <b>Xomidov T.T., Arziboyeva R.S.</b> Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....                                                                               | 223 |
| <b>Xusainov M.</b> Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish..... | 227 |
| <b>Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R.</b> Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..                                                                      | 231 |
| <b>Gulimboyev S.I.</b> Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....                                                                                    | 235 |
| <b>Ibodov J.Q.</b> Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....                                                                                                    | 239 |
| <b>Jumabayeva K.B.</b> Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....                                                                                  | 243 |
| <b>Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U.</b> Global trends in the development of international tourism services....                                                                   | 249 |
| <b>Sadullayev M.D.</b> Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....                                                                                                | 252 |
| <b>Tilabov N.T.</b> Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....                                                                             | 256 |
| <b>Toshtemirov Y.N.</b> O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....                                                                               | 264 |
| <b>Toshtemirova Z.M.</b> Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....                                                                   | 268 |
| <b>Uralov E.O.</b> Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....                                                                                      | 273 |
| <b>Xursanova F.Sh.</b> Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....                                                                                                      | 278 |
| <b>Yuldasheva G.A.</b> Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli .....                                                                       | 282 |
| <b>Абдуллаева Р.</b> Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....                                                                                                                 | 287 |
| <b>Юлдашев А.</b> Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари .....                                                                    | 292 |
| <b>Abdumalikova Z., Razakova B.S.</b> O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....               | 294 |
| <b>Azimov B.F.</b> Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....                                             | 300 |
| <b>Begaliyeva M.A.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....                                            | 304 |
| <b>Dawletmuratov A.M.</b> Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....                                             | 308 |
| <b>Karimova L.S., Jabborov A.A.</b> O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....                                                        | 313 |
| <b>Maxmudov F.U.</b> Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....                                                        | 319 |
| <b>Navruz-zoda L.B.</b> Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....                              | 323 |
| <b>Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T.</b> Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....                                                 | 327 |

|                                                                                                                                                                                        |            |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>Nurmirezayeva N.R.</b> Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....                                                             | <b>331</b> |
| <b>Rahimov A.M.</b> Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....                                   | <b>335</b> |
| <b>Ibragimova G.S.</b> Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....                                                                                          | <b>339</b> |
| <b>Ravshanova M.M.</b> Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....                     | <b>343</b> |
| <b>Ro‘ziboyeva M.</b> O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....                                                               | <b>347</b> |
| <b>Saidova F.K., O‘rozov Sh.</b> Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....                                         | <b>350</b> |
| <b>Sultonov S.N.</b> Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....                                              | <b>354</b> |
| <b>Sultonova D.U.</b> Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....                                                    | <b>358</b> |
| <b>To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z.</b> Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....                                        | <b>362</b> |
| <b>Tursunova N.U.</b> Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....                                                  | <b>368</b> |
| <b>Акрамова Г.А.</b> «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....                             | <b>374</b> |
| <b>Болтаев Ж.А.</b> Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..                                                                                      | <b>379</b> |
| <b>Жунайдуллаев М.А.</b> Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....                         | <b>384</b> |
| <b>Митрушова М.Л.</b> Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....                                                                            | <b>388</b> |
| <b>Муродов О.У.</b> Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....                                                                           | <b>392</b> |
| <b>Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А.</b> Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....          | <b>396</b> |
| <b>Sarkarov S.Z.</b> O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....                                                                                | <b>401</b> |
| <b>Minojiddinova N.M.</b> Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....                                 | <b>406</b> |
| <b>Ruzmetova I.Y.</b> Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....                                                                                                      | <b>410</b> |
| <b>Qudratov D., Ismoilov A.</b> Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....                                                                            | <b>414</b> |
| <b>Qodirov H.D.</b> Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....                                                   | <b>417</b> |
| <b>Kinjayev K.N.</b> Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....                                                                            | <b>421</b> |
| <b>Макушина А.Ю.</b> Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....                                                | <b>424</b> |
| <b>Rejapov X.X., Oxunjonova K.K.</b> Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida..... | <b>430</b> |
| <b>Махкамова Н.С.</b> Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития .....                                                                            | <b>434</b> |
| <b>Avilov N., Muhammadova G.</b> Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....                                                                                | <b>441</b> |
| <b>Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S.</b> O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....                                                 | <b>444</b> |
| <b>Yusupova M.B.</b> Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....                                                                                               | <b>447</b> |
| <b>Toshpo‘latov M.A.</b> Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...                                                                         | <b>452</b> |
| <b>Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H.</b> Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....                                                                                                 | <b>458</b> |
| <b>Хамракулов С.М.</b> Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....                                                                       | <b>461</b> |
| <b>Zayavitdinova N.M.</b> Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....                    | <b>465</b> |
| <b>Turg‘unov T.S.</b> O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....                                                                                | <b>469</b> |
| <b>Ботирова З.Қ.</b> Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....                                                                                           | <b>475</b> |
| <b>Бегимова Н.К.</b> Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....                                                                                                 | <b>481</b> |

**XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH ORQALI BANDLIKNI OSHIRISH VA  
DAROMADLARNI KO‘PAYTIRISH MEKANIZMLARI**

**МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ И УВЕЛИЧЕНИЯ ДОХОДОВ  
НАСЕЛЕНИЯ ЗА СЧЕТ РАЗВИТИЯ РЫНКА УСЛУГ**

**MECHANISMS FOR INCREASING EMPLOYMENT AND INCREASING INCOME  
THROUGH THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE MARKET**

**Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich** — Qoraqalpoq davlat universiteti "Menejment va iqtisodiyot asoslari" kafedrası professor w.b., PhD, dotsent,

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va aholi daromadlarini ko‘paytirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sektori eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo‘lib, uning barqaror rivojlanishi iqtisodiy o‘shish, hududiy rivojlanish va kambag‘allikni qisqartirishga xizmat qiladi. Maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi xizmatlar bozorining o‘shish sur‘atlari, hududiy tafovutlar, davlat siyosati va strategik chora-tadbirlari, jumladan soliq va ma‘muriy yengilliklar, kasbiy tayyorgarlik tizimi, raqamlashtirish va mikromoliyalash kabi mexanizmlar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, xizmatlar sektorini rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish, tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va aholining barqaror daromad manbalarini shakllantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** xizmatlar bozori, bandlik, aholi daromadlari, xizmatlar sektori, hududiy rivojlanish, raqamli iqtisodiyot, tadbirkorlik, davlat siyosati, innovatsiyalar.

В данной статье анализируются механизмы повышения занятости и увеличения доходов населения посредством развития рынка услуг. В условиях современной экономики сектор услуг является одной из наиболее быстро развивающихся отраслей, а его устойчивое развитие способствует экономическому росту, региональному развитию и сокращению бедности. В статье рассматриваются темпы роста рынка услуг в Республике Узбекистан, региональные различия, государственная политика и стратегические меры, включая налоговые и административные льготы, систему профессиональной подготовки, цифровизацию и механизмы микрофинансирования. Кроме того, исследуются возможности создания новых рабочих мест, расширения предпринимательской деятельности и формирования устойчивых источников доходов населения за счёт развития сектора услуг.

**Ключевые слова:** рынок услуг, занятость, доходы населения, сектор услуг, региональное развитие, цифровая экономика, предпринимательство, государственная политика, инновации.

This article analyzes the mechanisms for increasing employment and raising household incomes through the development of the service market. In the context of the modern economy, the service sector is one of the fastest-growing sectors, and its sustainable development contributes to economic growth, regional development, and poverty reduction. The article examines the growth dynamics of the service market in the Republic of Uzbekistan, regional disparities, government policies, and strategic measures, including tax and administrative incentives, vocational training systems, digitalization, and microfinance mechanisms. In addition, the study explores opportunities for creating new jobs, expanding entrepreneurial activities, and forming stable sources of income for the population through the development of the service sector.

**Keywords:** service market, employment, household income, service sector, regional development, digital economy, entrepreneurship, public policy, innovations.

## **“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil**

Xizmatlar sektori zamonaviy iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo‘lib, u iqtisodiy o‘sish, bandlikni ta‘minlash va aholi daromadlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar bozorini kengaytirish nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratadi, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ham qo‘shimcha talabni shakllantiradi. Aholining mehnat faoliyati bilan band bo‘lishi aholi daromadlarini oshirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri inson kapitalini rivojlantirishdan iborat. Mazkur hujjatda 2030-yilga borib O‘zbekistonni Global innovatsion indeks reytingida dunyoning yetakchi 60 ta ilg‘or davlati qatoriga kiritish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan (1-jadval).

**1-jadval**

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoniga 1-ilova “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi [1]**

| t/r | Maqsadlar                                                                                                                                      | Maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari                                                                                                           | Hozirgi ko‘rsatkich (2025) | Yillar kesimida |      |      |      |      | Samaradorlik ko‘rsatkichiga erishishga mas’ul idora |
|-----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------|-----------------|------|------|------|------|-----------------------------------------------------|
|     |                                                                                                                                                |                                                                                                                                                      |                            | 2026            | 2027 | 2028 | 2029 | 2030 |                                                     |
| 12  | <b>Ilmiy tadqiqotlar va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash orqali barcha yo‘nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish</b> | O‘zbekistonning Global innovatsiyalar indeksidagi o‘rnini yaxshilash orqali mamlakatni dunyodagi yetakchi 60 ta innovatsion davlat qatoriga kiritish | 79                         | 77              | 74   | 70   | 65   | 60   | Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi        |

Jahon banki tomonidan e’lon qilingan yangi tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bolalarning sog‘lig‘i va ta’limini yaxshilash kelajakda nafaqat alohida shaxslarning, balki butun mamlakatlarning daromadlarini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida xizmatlar sektori milliy iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyotda bandlikni oshirish, aholi daromadlarini ko‘paytirish hamda kambag‘allik darajasini qisqartirishda aynan xizmatlar bozori muhim rol o‘ynaydi. Sababi, xizmat ko‘rsatish sohasi kapital talabining nisbatan pastligi, mehnat sig‘imining yuqoriligi hamda kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun qulay imkoniyatlar yaratishi bilan ajralib turadi.

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilning yanvar–dekabr oylarida O‘zbekistonda ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1,05 kvadrillion so‘mni tashkil etdi (norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo‘yicha o‘tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda). Bu ko‘rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 14,7 % ga oshdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi yillar kesimida quyidagicha (yanvar- dekabr): 2025-yil - 1 050,3 trln so‘m, 2024-yil - 840,1 trln so‘m, 2023-yil - 664,8 trln so‘m, 2022-yil - 509,6 trln so‘m, 2021-yil - 389,4 trln so‘m, 2020-yil – 297,2 trln so‘m (2-jadval).

Keltirilgan jadval ma’lumotlari 2020-2025-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining barqaror va yuqori sur‘atlarda o‘sib borayotganini ko‘rsatadi.

**O‘zbekiston Respublikasida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, mlrd.so‘m hisobida [2]**

| <b>Klassifikator</b>          | <b>2020-yil</b> | <b>2021-yl</b> | <b>2022-yil</b> | <b>2023-yil</b> | <b>2024-yil</b> | <b>2025-yil</b> |
|-------------------------------|-----------------|----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|
| O‘zbekiston Respublikasi      | 297209,9        | 389385,5       | 509585,4        | 664816          | 840146,5        | 1050293         |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 12132,5         | 14525,3        | 19054,9         | 23217,9         | 28758,8         | 35196,2         |
| Andijon viloyati              | 17193           | 22110,9        | 27587,4         | 34359,1         | 43233,1         | 53969,6         |
| Buxoro viloyati               | 14488,5         | 18247,5        | 23298,5         | 28440,1         | 34441,6         | 42659,2         |
| Jizzax viloyati               | 7028,3          | 9326,7         | 12111,2         | 16156,2         | 19950,5         | 24612,9         |
| Qashqadaryo viloyati          | 17876,8         | 22738,1        | 28633,8         | 35747,4         | 43857,6         | 54118           |
| Navoiy viloyati               | 7306            | 9665,9         | 13226,6         | 16773,3         | 20862,6         | 25733,6         |
| Namangan viloyati             | 15449,3         | 20136,9        | 27429,1         | 34930,3         | 44128,5         | 56282,9         |
| Samarqand viloyati            | 20083,8         | 27457,5        | 36116,9         | 47746,7         | 61018           | 78163           |
| Surxondaryo viloyati          | 11311,4         | 15256,7        | 19284,8         | 23467,1         | 28655,2         | 35561,3         |
| Sirdaryo viloyati             | 4824,5          | 6137,9         | 7933,7          | 9513,9          | 11967,6         | 14611,4         |
| Toshkent viloyati             | 22384,6         | 29535,1        | 36786,8         | 46267,2         | 57341,7         | 71783,7         |
| Farg‘ona viloyati             | 22377,4         | 28488,2        | 36078,8         | 45227,8         | 56780,6         | 71765,9         |
| Xorazm viloyati               | 9238,3          | 12937,3        | 17639,2         | 23014,5         | 29193           | 36911,6         |
| Toshkent shahri               | 95332,9         | 128890,7       | 173748,4        | 238502,6        | 310103,4        | 397414,2        |

Xususan, respublika bo‘yicha bozor xizmatlari hajmi 2020-yilda 297 209,9 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib 1 050 293 mlrd so‘mga yetgan. Bu esa besh yil davomida xizmatlar bozori hajmi qariyb 3,5 barobar oshganini ko‘rsatadi. Mazkur holat mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sektorining roli ortib borayotganini va uning iqtisodiy o‘shishning muhim drayverlaridan biriga aylanayotganini tasdiqlaydi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, xizmatlar hajmining eng yuqori ulushi Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri keladi. Jumladan, 2020-yilda Toshkent shahrida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 95 332,9 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 397 414,2 mlrd so‘mga yetgan. Bu poytaxtning iqtisodiy, moliyaviy va biznes markaz sifatida xizmatlar bozorida yetakchi o‘rinni egallashini ko‘rsatadi. Poytaxtda bank-moliya xizmatlari, axborot texnologiyalari, transport-logistika, savdo va turizm xizmatlarining keng rivojlangani ushbu ko‘rsatkihlarning yuqori bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Nisbatan kichikroq iqtisodiy salohiyatga ega hududlarda ham xizmatlar hajmining sezilarli o‘shishi kuzatilmog‘da. Masalan, Jizzax, Sirdaryo, Navoiy va Xorazm viloyatlarida xizmatlar hajmi har yili izchil oshib borgan. Bu esa xizmatlar sektorini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan hududiy dasturlar va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash choralari o‘z samarasini berayotganini ko‘rsatadi.

Alohida e‘tibor qaratiladigan hududlardan biri Qoraqalpog‘iston Respublikasi hisoblanadi. Ushbu hududda xizmatlar hajmi 2020-yilda 12 132,5 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda 35 196,2 mlrd so‘mga yetgan. Bu esa qariyb 3 barobar o‘shishni anglatadi. Biroq respublika miqyosida xizmatlar hajmidagi ulushi hali ham nisbatan past darajada qolmoqda. Bu esa Qoraqalpog‘istonda xizmatlar sektorini yanada rivojlantirish, yangi xizmat turlarini joriy etish va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar bozorining so‘nggi yillarda jadal rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Xizmatlar hajmining izchil o‘shib borishi iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan diversifikatsiyalanayotganini, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati kengayib borayotganini hamda aholining xizmatlarga bo‘lgan talabi ortib borayotganini tasdiqlaydi.

2026-yilda mamlakatimizda xizmatlar sektorini jadal rivojlantirish, uning milliy iqtisodiyotdagi ulushini oshirish hamda aholi bandligini kengaytirish maqsadida keng ko‘lamli chora-

tadbirlar amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda. Xususan, imtiyozli kreditlar ajratish, subsidiyalar berish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda minglab yangi servis obyektlarini ishga tushirish orqali xizmatlar bozori hajmini 100 milliard AQSh dollaridan oshirish vazifasi qo‘yilgan. Bu maqsadga erishish uchun xizmat ko‘rsatish sohasining turli yo‘nalishlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi [3].

3-jadvalda xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va aholi daromadlarini ko‘paytirishga xizmat qiluvchi asosiy mexanizmlar tizimlashtirilgan (3-jadvalga qarang).

3-jadvalda keltirilgan mexanizmlar xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirishning kompleks yondashuvini ifodalaydi. Ularning har biri xizmatlar sektorining alohida tarkibiy jihatlari ta‘sir ko‘rsatib, umumiy iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Birinchi mexanizm – soliq va ma‘muriy yengilliklar tadbirkorlik muhitini yaxshilashga qaratilgan. Soliq yukining kamayishi va ruxsat berish tartiblarining soddalashtirilishi kichik biznes subyektlarining xizmatlar bozoriga kirib kelishini osonlashtiradi. Natijada norasmiy sektor qisqarib, iqtisodiy faoliyatning rasmiylashtirilishi ortadi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish – kasbiy ta‘lim va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirishdir. Zamonaviy xizmatlar sektori yuqori malakali kadrlarni talab qilgani sababli, mehnat bozori ehtiyojlariga mos professional tayyorgarlik tizimi bandlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Malakali kadrlar xizmatlar sifatini oshiradi va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

**3-jadval**

**Xizmatlar bozorini rivojlantirish va bandlikni oshirish mexanizmlari [4]**

| <b>№</b> | <b>Rivojlantirish mexanizmi</b>                        | <b>Mazmuni</b>                                                                                                                                                                                                                                                               | <b>Kutilayotgan natija</b>                                                                          |
|----------|--------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.       | <b>Soliq va ma‘muriy yengilliklar</b>                  | Kichik va o‘rta biznes hamda xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalar uchun soliq stavkalarini pasaytirish, faoliyatni rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish, litsenziya va ruxsat berish tartiblarini optimallashtirish orqali norasmiy sektorni qonuniylashtirish. | Tadbirkorlik subyektlari soni ortadi, xizmatlar bozori kengayadi va yangi ish o‘rinlari yaratiladi. |
| 2.       | <b>Kasbiy ta‘lim va qayta tayyorlash tizimi</b>        | Mehnat bozori ehtiyojlariga mos kasblar bo‘yicha professional kadrlarni tayyorlash, malaka oshirish kurslarini rivojlantirish hamda xizmatlar sohasiga mos kompetensiyalarni shakllantirish.                                                                                 | Malakali ishchi kuchi shakllanadi, xizmatlar sifati oshadi va ishchilarning daromadlari ortadi.     |
| 3.       | <b>Raqamlashtirish va innovatsion xizmatlar</b>        | IT-xizmatlar, elektron tijorat, onlayn platformalar, masofaviy ta‘lim va raqamli servislarni rivojlantirish orqali xizmatlar sektorining yangi yo‘nalishlarini shakllantirish.                                                                                               | Yangi turdagi ish o‘rinlari yaratiladi, xizmatlar bozorining hududiy chegaralari kengayadi.         |
| 4.       | <b>Mikromoliyalash va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash</b> | Xizmat ko‘rsatish sohasidagi kichik biznes loyihalarini imtiyozli kreditlash, startap tashabbuslarini grantlar orqali qo‘llab-quvvatlash va moliyaviy resurslarga kirishni kengaytirish.                                                                                     | Kichik tadbirkorlik rivojlanadi, yangi xizmat korxonalari tashkil etiladi.                          |
| 5.       | <b>Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish</b>      | Mahallalarda xizmat ko‘rsatish markazlarini tashkil etish, aholini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish, hududiy dasturlar orqali yangi xizmat turlarini joriy etish.                                                                                                        | Mahalliy darajada bandlik oshadi, aholining barqaror daromad manbalari shakllanadi.                 |

Uchinchi mexanizm – raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish bo‘lib, u xizmatlar bozorining yangi segmentlarini shakllantiradi. Raqamli platformalar va IT xizmatlar orqali masofaviy bandlik imkoniyatlari kengayadi, bu esa ayniqsa yoshlar va yuqori malakali mutaxassislar uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi.

To‘rtinchi mexanizm – mikromoliyalash tizimini rivojlantirishdir. Moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining kengayishi kichik biznes loyihalarining amalga oshirilishini rag‘batlantiradi va xizmat ko‘rsatish sohasida yangi korxonalar tashkil etilishiga zamin yaratadi.

Beshinchi mexanizm – mahalliy darajada tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Mahalla darajasida xizmat ko‘rsatish markazlarini tashkil etish aholining iqtisodiy faolligini oshiradi, ayniqsa kam daromadli qatlamlar uchun yangi daromad manbalarini yaratadi.

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan mexanizmlarning o‘zaro uyg‘un va tizimli tarzda amalga oshirilishi xizmatlar bozorining barqaror rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Xizmatlar sektori iqtisodiyotning eng moslashuvchan va tez rivojlanadigan tarmoqlaridan biri bo‘lib, u qisqa vaqt ichida yangi ish o‘rinlarini yaratish, tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish hamda aholi daromadlarini oshirish imkoniyatiga ega. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznes subyektlarining xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yuritishi iqtisodiyotda raqobat muhitini kuchaytiradi, xizmatlar sifatining yaxshilanishiga va iste‘molchilar uchun qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>
2. Jahon banki. “Global Economic Prospects”, Washington, D.C., 2025.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Bozor xizmatlari statistikasi 2020–2025.
4. Schultz, T. W. (1961). Investment in Human Capital. The American Economic Review, 51(1), 1–17.
5. Becker, G. S. (1964). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. University of Chicago Press.
6. Dawletmuratov A. Xizmatlar sohasini boshqarish orqali kambag‘allikni qisqartirish mexanizmlarining nazariy modeli. Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal. 2026 y. №1/2 (134), 18-21 b.